

BOLALARDA KENG TARQALGAN TISH KASALLIKLARI VA ULARNING OLDINI OLISH

Gulira'no Davronjonova Umidjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fanlar fakulteti, Stomatologiya yo'nalishi:

Email: guliranodavronjonova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar orasida keng tarqalgan tish kasalliklari, xususan, kariyes, milk yallig'lanishi (gingivit), tish emalining buzilishi, tish chiqishdagi muammolar hamda ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu kasalliklarning oldini olish yo'llari, jumladan, gigiyena qoidalariga rioya qilish, parhez, profilaktik tadbirlar va stomatologik nazoratning ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada soha mutaxassislarining tavsiyalari va mavjud ilmiy adabiyotlarga asoslanilgan tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bolalar stomatologiyasi, kariyes, gingivit, gigiyena, profilaktika, sog'lom ovqatlanish, stomatologik nazorat.

Annotation: In this article, the article is widely covered among children, in particular, the caries, inflammation (gingivitis), dental problems, tooth problems, and their development. The prevention of these diseases, including compliance with the rules of hygiene, diet, preventive measures and dental control is discussed on scientifically the importance. The article provides an analyzes based on the recommendations of the field and available scientific literature.

Keywords: pediatric dentistry, cars, gingivitis, hygiene, prevention, healthy nutrition, dentor control.

Аннотация: В этой статье статья широко распространена среди детей, в частности, кариесом, воспалением (гингивитом), стоматологическими проблемами, проблемами зубов и их развитием. Профилактика этих заболеваний, включая соблюдение правил гигиены, диеты, профилактических мер и стоматологического контроля, обсуждается на научной точке зрения. В статье представлен анализ, основанный на рекомендациях области и доступной научной литературы.

Ключевые слова: педиатрическая стоматология, автомобили, гингивит, гигиена, профилактика, здоровое питание, контроль над стоматорием.

Kirish

Bola salomatligi har qanday jamiyatning kelajagi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda bolalar orasida og'iz bo'shlig'i bilan bog'liq muammolar, xususan, tish kasalliklari keng tarqalmoqda. Bolalik bu organizm faol rivojlanadigan va o'zgaradigan davr bo'lib, ayni paytda himoyasiz hamdir. Shu sababli, tish kasalliklari erta bosqichda aniqlanmasa, nafaqat og'iz bo'shlig'iga, balki butun organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlar natijalariga binoan, maktabgacha yoshdagi bolalarning 70-80 foizida biror tish kasalligi mavjud. Bu holat bolalarning ovqat hazm qilish jarayoniga, so'zlashuviga, hatto psixologik rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bolalar stomatologiyasi dolzarb masalalardan biri sifatida doimiy ravishda ilmiy va amaliy e'tiborni talab qiladi. Bolalarda tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi. Bu gigiyenik qoidalarga rioya qilish, sog'lom ovqatlanish, o'qituvchilar va ota-onalarning tibbiy bilimlari darajasini oshirish hamda muntazam stomatologik ko'riklar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu maqolada bolalarda eng ko'p uchraydigan tish kasalliklari, ularning sabablari, oqibatlari va oldini olish yollari batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Deskriptiv tahlil: Bolalardagi tish kasalliklarining tarqalish darajasi, ularning turlari va simptomlari tavsiflandi.
- Tibbiy adabiyotlarga tayanilgan bibliografik tahlil: So'nggi yillardagi tibbiyot va stomatologiyaga oid ilmiy maqolalar, darsliklar va statistik ma'lumotlar o'rganildi.
- Amaliy kuzatuv va statistik tahlil: O'zbekiston hududida joylashgan stomatologik markazlar va bolalar poliklinikalaridagi ma'lumotlar asosida kasalliklar darajasi baholandi.
- Solishtirma metod: Turli yoshdagi bolalar guruhlarida uchraydigan tish kasalliklari solishtirildi.



Asosiy qism

Kariyes bu tishning qattiq to'qimalarining yemirilishi bilan kechadigan kasallik bo'lib, u ko'pincha emal va dentinni zararlaydi. Bolalarda bu kasallik ko'pincha noto'g'ri

gigiyena va shirinliklarga ortiqcha berilish natijasida rivojlanadi. Kariyes dastlab tish yuzasida dog paydo bolishi bilan boshlanadi, keyinchalik esa bu dog chuqurlashib, tishni butunlay yemirib yuborishi mumkin. Og`riq, ovqat chaynashdagi qiyinchiliklar va umumiy holsizlik uning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Gingivit milk yallig`lanishi bo`lib, u bolalarda og`iz gigiyenasi yetarli bo`lmagan hollarda rivojlanadi. Bu holatda milklar qizaradi, qonaydi va og`riqli bo`ladi. Uzoq davom etsa, periodontit kasalligiga olib kelishi mumkin. Ko`plab bolalarda tish chiqishi og`riqli bo`ladi, ayrim hollarda esa tishlar noto`g`ri yo`nalishda chiqadi yoki joylashuvi nosog`lom bo`ladi. Bu esa keyinchalik chaynash tizimining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ba`zi bolalarda emal tug`ma yoki keyinchalik rivojlanish bosqichida yetarlicha mustahkam bo`lmaydi. Bunday bolalarda tishlar tezda yemiriladi, kariyesga moyillik ortadi.

Tish kasalliklarining asosiy sabablari

Shaxsiy gigiyenaga rioya qilmaslik

Oziq-ovqat tarkibining nosog`lomligi

Irsi omillar

Atrof-muhit omillari (suvdagi ftor miqdori kamligi)

Tibbiy madaniyatning pastligi

Gigiyena qoidalari

Kuniga ikki marta tish yuvish

To`g`ri tish cho`tkasi va pastasidan foydalanish

Og`izni har ovqatdan so`ng chayish

Sog`lom ovqatlanish

Shirinliklar, gazli ichimliklar iste`molini cheklash

Meva va sabzavotlar, sut mahsulotlarini ko`proq iste`mol qilish

Qattiq ovqatlar orqali tishni mustahkamlash

Tibbiy profilaktika

Har 6 oyda stomatologga ko`rikdan o`tish

Ftorli laklar bilan qoplama

Ota-onalar va o`qituvchilarning ma`lumotli bo`lishi



Tahlil va natijalar

Yuqoridagi malumotlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalardagi tish kasalliklarining aksariyati profilaktika va erta tashxis bilan oldini olish mumkin bo'lgan holatlardir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sog'lom ovqatlanish, muntazam gigiyena, va stomatologik nazorat orqali 60-70% holatlarda tish kasalliklarining oldi olinadi. Tahlillarda ishtirok etgan 1000 nafar bola orasida 78% da kariyes alomatlari aniqlangan bo'lsa, ularning atigi 25% stomatologga muntazam murojaat qilib turgan. Bu esa stomatologik madaniyatning pastligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki bolalarda tish kasalliklari nafaqat stomatologik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masaladir. Bu kasalliklar bola sog'lig'i, psixologiyasi, hattoki ijtimoiy faolligiga ta'sir qiladi. Ularning oldini olish esa faqat tibbiyot xodimlari emas, balki ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning umumiy yondashuvi orqali amalga oshiriladi. Quyidagilarni taklif etish mumkin:

Maktab va bog'chalarda muntazam stomatologik koriklar tashkil etish

Ota-onalar uchun stomatologik savodxonlik boyicha seminarlar o'tkazish

Bolalar uchun gigiyena vositalarini (chotka, pasta) bepul yetkazib berish dasturlarini yo'lga qoyish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilova N. Sh. Bolalar stomatologiyasi asoslari. Toshkent, 2021.
2. Karimov B.T. Tish kasalliklari profilaktikasi, Toshkent tibbiyot nashriyoti, 2019.
3. World Health Organization. Oral health in children, 2020.
4. Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy jurnali, 2023-yil, 1-son.
5. Akhmedov S.H., Gigiyena va profilaktika asoslari, Toshkent, 2022.
6. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
7. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
8. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.
9. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
10. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."